

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Toshkent tumanida "Sport – sog'lom hayot garovi" shiori ostida mahallalarda yashovchi xotin-qizlar uchun sportning voleybol turi bo'yicha "Hokim kubogi" bo'lib o'tmoqda.



Unda barcha tuman-shaharlardan kelgan jamoalar o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazmoqda. Musobaqa joriy yilning 15-martiga qadar davom etadi va yakunda faol ishtirokchilar hamda g'oliblar tashkilotchilar tomonidan sovrin va medallar bilan taqdirlanadi.

Toshkent viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari O.Sultonbekov hamda viloyat sport boshqarmasi boshlig'i R.Boboqulov hududlarda sport ob'ektlarining holati, sportchi va murabbiylarning murojaat va takliflarini o'rganmoqda.



Jarayonda, Prezidentimiz tomonidan sohaga oid o'tkazilgan navbatdagi videoselektorda belgilangan vazifalar, qo'yilgan rejalar hamda bajarilishi shart bo'lgan ustuvor vazifalar soha vakillari-ga yetkazilmoqda. Sport ta'lim muassasa xodimlari va murabbiylari bilan suhbatlarda ularni qiynab kelayotgan muammolar o'rganildi va tegishliligi bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatma berildi.

A.Musayev,
O'ZA

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINIING UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH – DOLZARB VAZIFA

BEGIMQULOV Zarif Axmadovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

zarifbegimqulov77@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 30-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pe-

dagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, soha vakillari bilan ta'limda amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan muloqotida jumladan, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog hamda mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash, malakasini oshirishning uzluksiz tizimi yo'lga qo'yilishi, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish soati" hamda "Kasbiy rivojlanish kuni" joriy etilishi, Prezident maktablarida to'plangan ilg'or tajriba-

lar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng tatbiq qilinishi [4] kabi dolzarb vazifalar belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni-ning 10-moddasida: "Pedagoglar malakasini oshirish ularga o'z kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilab borish, shuningdek toifasini (lavoziimini) oshirish imkoniyatini berish maqsadida amalga oshiriladi" [1], O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi (yangi tahriri)ning 367-moddasida: "Malaka oshirish deganda xodimning undagi mavjud kasb va mutaxassislik bo'yicha ishlarni bajarishga tayyorligini tavsiflovchi, xodimning kasbiy bilimlari, malakalari va ko'nikmalari darajasini takomillashtirish tushuniladi" [2], - deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan malaka oshirish faoliyatining maqsadi — kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlash, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning toifasi, darajasi, razryadi va lavoziimi oshishiga xizmat qiladigan zarur hajmini egallashini ta'minlash [3] hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning malaka oshirishi haqida so'z borganda, avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini ta'kidlash zarur. Uning muhim jihatlaridan biri malaka oshirishga kelgan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning nafaqat ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarni o'zlashtirishi, balki uzluksiz ta'lim sharoitida qo'llash uchun axborotlarni

izlash, topish, tahlil qilish, qayta ishlash, mustaqil bilim olish va bilish faoliyati usullarini egallashidir.

Amaliyotdan ma'lumki, malaka oshirish jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning modullar kesimida o'zlari faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalaridagi ish tajribalarini rivojlantirish maqsadida xususan, dars va mashg'ulotlar o'tishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini takomillashtiradilar. Shu bilan birga, tinglovchilar kurs davomida jismoniy tarbiya va sport, ta'lim tizimiga yangi kiritilgan mavzular mazmuni va mashg'ulot o'tkazish metodlarini qo'llash kompetensiyalarini yanada kengroq o'rganadilar hamda kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan eng so'nggi yangiliklar va uslubiy yordamni qisqa davrda o'zlashtirib oladilar.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi" malaka oshirish kursiga malaka oshirishga ketayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining aksariyati oliy ma'lumotli mutaxassislardir. Ular bilan malaka oshirish mobaynida dars va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari jarayonidagi muloqotlarda ularning kasbiy faoliyatida bir qator yechilishi lozim bo'lgan vazifalar mavjudligini angladik. Jumladan, ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablarida hanuzgacha jismoniy tarbiya faniga "ikkinchi darajali fan" sifatida qaralib kelinayotganligi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining ish faoliyati davomida o'z ustida mustaqil ishlash bo'yicha talabni shakllantirilmaganligi, davriy malaka oshirish kursidan keyingi uzluksiz malaka oshirish tizimi bo'yicha tizimli monitoring o'tkazilmasligi, mustaqil mutolaa (mustaqil o'qish) bilan shug'ullanish uchun oddiy shart-sharoitlarning ham yo'qligi (qo'shimcha xona, axborot-resurs markazlari va kutubxonalarda jismoniy tarbiya fanidan adabiyotlar) yoki yetarli emasligini alohida ta'kidlaydilar.

O'tkazilgan tahlillar umimiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahorati, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining chuqurlashtirish, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirishni har to'rt yilda olib boriladigan malaka oshirish jarayonidagina amalga oshirib bo'lmashligini ko'rsatmoqda. Bu esa, mazkur kadrlarning bilim saviyasini uzluksiz oshirib borishni, umimiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilaridan doimiy kasbiy o'sishni va o'z ishiga ulkan fidoyilikni talab qiladi.

Ma'lumki, uzluksiz malaka oshirish umimiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kursdan kursgacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Ushbu jarayon jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish kurslari va kursdan keyingi faoliyatlari davomidagi ta'lim uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashi bilan umimiy o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalari hamda salohiyatlari yanada o'sishiga xizmat qiladi.

Amaliyotdan ma'lumki, har qanday umimiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining pedagogik mahorati uzluksiz malaka oshirish jarayonida sohaga oid yangiliklarni o'zlashtirishi va o'z ish faoliyatida qo'llashi natijasida boyib boradi. Bizning fikrimizcha, umimiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining lavozim majburiyatlarini o'rnatilgan tartibda qaytadan ko'rib chiqish va takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy qilish;

- "Ustoz-shogird" an'alarini sport ta'limiga keng joriy etish hamda ushbu faoliyatni uzluksiz ravishda takomillashtirib borish;

- jismoniy tarbiya fani o'qituvchilar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida malaka oshirishning "Kasbiy

rivojlanish soati", shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllarini joriy etish;

- jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining turli o'quv seminarlari, treninglar, tanlovlar, konferensiya va anjumanlarda ishtirokchi va ma'ruzachi sifatida qatnashishini ta'minlash;

- muassasada jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining ijodiy faoliyat olib borish, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishlariga tegishli sharoitlarni yaratish.

Ma'lumki, har qanday pedagog kadr uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'zining kasbiy bilim va mahoratini oshirib borishi natijasida yangicha usullardan foydalanib, kasbiy faoliyatini tashkil etgandagina ta'lim-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish mahoratini egalaydi. Buning uchun bugungi kun pedagog kadrlari hozirgi davr talablarini teran tushunishi, zamon bilan hamohang tarzda o'z kasbiy darajasini muntazam va tizimli ravishda oshirib borishi, ilmiy-uslubiy ish olib borish malakasiga ega bo'lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo'yishni bilishi, tegishli tadqiqot usullari hamda uslublarini tanlay bilishi, olingan ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/6786401>

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (yangi tahriri). <https://lex.uz/docs/6257288>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6093267>

4. Ustozini e'zozlagan jamiyat ravnaq topadi, o'qituvchisining qadr-qimmatini baland xalqning obro'-e'tibori yuksak bo'ladi. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024-yil 1-oktabrdagi 199 (1260)-soni, 2-bet.